

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XOJIYEVA RO‘ZIGUL XUDAYBERDIYEVNA**

**PORA OLISH-BERISHDA VOSITACHILIK QILISH UCHUN  
JAVOBGARLIK BELGILANGAN JINOYAT QONUNCHILIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Xo'jiyeva Ro'zigul Xudayberdiyevna**

Pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonunchiligini takomillashtirish.....3

**Хожиева Рузигул Худайбердиевна**

Совершенствование уголовного законодательства, устанавливающего ответственность за посредничество во взяточничестве.....23

**Khojievna Ruzigul Khudayberdievna**

Improvement of the criminal legislation establishing responsibility for mediation in bribery.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XOJIYEVA RO‘ZIGUL XUDAYBERDIYEVNA**

**PORA OLISH-BERISHDA VOSITACHILIK QILISH UCHUN  
JAVOBGARLIK BELGILANGAN JINOYAT QONUNCHILIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu891 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash](http://www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash)) va “ZiyoNET” ta’lim axborot tarmog‘ida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**O‘razaliyev Murodbek Qorayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Suyunova Dilbar Joldasbayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Hojiyev Nosirjon Komilovich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 18-dekabr soat 16:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36 faks: +99871 233-37-48, e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1353-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-dekabr kuni tarqatildi.  
(2025-yil 3-dekabrda 67-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Otajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

**I.B. Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**D.B. Bazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda poraxo‘rlik jinoyatlarining vositachilar yordamida amalga oshirilishi korrupsiyaning institutsional tus olishiga zamin yaratib, huquqiy tizimga ishonchsizlikni orttirib, davlat boshqaruvi samaradorligiga putur yetkazmoqda. Xususan, Transparency International xalqaro tashkiloti korrupsiyaning dinamik ko‘rsatkichlari Italiyada – 57 %, Gretsiyada – 31 %, AQShda – 26 %, Yaponiyada – 24 %, Buyuk Britaniyada – 22 %, Germaniyada – 21 %, Kanadada esa 19 %ni tashkil etishini ko‘rsatadi<sup>1</sup>. Mazkur holat davlat idoralari va xususiy sektorda korrupsion tuzilmalar ta‘sirida qolishi korrupsion sxemalarning mustahkamlanishi, ularni aniqlash va bartaraf etish qiyinlashishi pora olish-berish va unda ishtirokchilik qilishning tizimli muammoga aylanishiga olib kelmoqda. Bu kabi holatlar manfaatlar to‘qnashuvi xavfi yuqori sektorlarda korrupsiya xavfini minimallashtirish, tizimni shaffoflashtirish va raqamlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro standartlarga rioya etish, ayniqsa jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash va uni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, poraxo‘rlik jinoyatlariga qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Jahonda poraxo‘rlikning iqtisodiy o‘sishga, investitsiyalar oqimiga va ijtimoiy tengsizlikka ta‘sirini tahlil qilish, korrupsiyaning salbiy oqibatlarini aniqlash va uni kamaytirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish, poraxo‘rlikka qarshi kurashish va oldini olishda sun‘iy intellekt, blokcheyn va boshqa zamonaviy texnologiyalarning rolini oshirishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, shaxsning o‘z mavqe‘ini, obro‘-e‘tiboridan g‘arazli maqsadlarda foydalanishni kriminalizatsiya qilish, xizmat lavozimining suiiste‘mol qilishda ifodalanadigan qilmishni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, Istanbul harakatlar rejasi doirasida ayrim korrupsiyaviy qilmishlarni jinoyat sifatida baholash hamda ularga qarshi kurash bo‘yicha yangi siyosat va chora-tadbirlarni joriy qilish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan pora olish-berishda vositachilik qilishning korrupsion jinoyatchilik hamda jamiyatning kriminogen zararlanishiga ijtimoiy ta‘sirini tadqiq etish, pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarning oldini olishni takomillashtirish zarurati taqozo etilmoqda.

Respublikamizda poraxo‘rlik jinoyatlariga barham berish, ular uchun javobgarlikni takomillashtirish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Xususan, nodavlat sektorda poraxo‘rlik uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish, sport musobaqalaridagi poraxo‘rlik holatlarini bartaraf etishning huquqiy asoslarini yaratish, poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik va jazo tizimiga oid jinoyat qonuni normalari takomillashtirilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi<sup>2</sup>da

<sup>1</sup> [www.transparency.org/en/cpi/2023](http://www.transparency.org/en/cpi/2023)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son

turlicha sharhlash yoki korrupsiya holatlari sodir etilishiga yo‘l qo‘yadigan yoxud ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri jinoyat qonunchiligi prinsiplariga mos kelmaydigan qilmishlar uchun javobgarlik belgilanishiga yo‘l qo‘yadigan normalarni chiqarib tashlash hamda korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarga nisbatan keskin jinoiy siyosatni davom ettirish jinoyat qonunini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan etib belgilangan. Ushbu vazifalar poraxo‘rlik jinoyatlarida vositachilik uchun javobgarlikni qayta ko‘rib chiqish va yanada takomillashtirish, tergov va sud organlari tomonidan poraxo‘rlikda vositachilik qilganlik uchun jinoyat qonunini qo‘llash shartlari, talablariga aniqlik kiritish, ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ–419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”, 2008-yil 7-iyuldagi O‘RQ–158-son “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PQ–4761-son “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2022-yil 12-yanvardagi PQ–81-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PQ–240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-iyundagi PF–6013-son “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 27-maydagi PF–5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Olib borilayotgan ushbu tadqiqot loyihasida turli normativ hujjatlar, ilmiy adabiyotlar: ilmiy maqolalar, dissertatsiya, avtoreferat, monografiya, darsliklar bilan tanishib, o‘rganib chiqildi hamda ushbu ilmiy adabiyotlar mualliflarining sud tizimi va uni takomillashtirish xususida bildirgan fikr-mulohazalarini tahlil qilindi. Xususan, korrupsiya tushunchasi, uning yuzaga kelish sabablari, korrupsiya bilan bog‘liq holatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish borasida ilmiy yo‘nalishlari bilan sohaga ulkan hissa qo‘shgan respublikamiz olimlari orasida, R.A.Zufarov, Q.R.Abdurasulova, A.A.Otajonov, M.X.Rustamboyev, M.Usmonaliyev, M.Q.O‘razaliyev, B.I.Ismoilov, M.M.Kadirov, G.B.Nurmuhammedova, A.A.Rasulov, N.S.Salayev, S.Niyazova,

X.R.Ochilov, I.A. Sottiyev, B.J.Axrarov, Q.Tojiboev, M.Sobirov, G.R.Malikova, Ye.V.Kolenkolarning ilmiy tadqiqotlari alohida o‘rin egallaydi.

Jumladan, B.D.Axrarov pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik muammolarini boshqaruv tartibiga qarshi mansabdorlik jinoyatlari o‘rganish doirasida, R.A.Zufarov poraxo‘rlikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy choralarini tadqiq qilishda, Ye.V. Kolenko ushbu jinoyatning pora olganlik uchun javobgarlikning xalqaro standartlar bo‘yicha takomillashtirishga oid jihatlarini, S.A. Boydadayev va G.B.Nurmuhammedovalar esa mazkur jinoyatning korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar tarkibida oldini olish masalalarini tadqiq etishgan.

Shuningdek, pora olish-berishda vositachilikning jinoiy-huquqiy belgilari MDH mamlakatlari olimlaridan V.S.Ovchinskiy, A.Gurov, Yu.Melnikov, S.I.Dementev, O.A.Kuznetsova, S.V.Maksimov, A.V.Endoltseva, O.A.Vladimirova, Yu.V.Arsenteva, V.V.Naumov, I.Sh.Galstyan, T.M.Erlanovich, D.A.Abubekerova, O.N.Kuzmina, A.G.Antonov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Xorij olimlari G. Klaussan, E.Luna, S. Rouz-Akerman, V.Jan, K.Ringaret, F.Shnayderlar, Davide Torsello, J. Andenaes, J. Bentham, C. Smith, J. Herring, K. Gerocz, M. Jefferson, L. Newman, B. Kennet poraxo‘rlikning oldini olishga doir masalalarni tadqiq etganlar.

Biroq, korrupsiyaviy jinoyatlarga oid ilmiy tadqiqotlar va chiqishlar nisbatan ko‘p bo‘lsa ham, pora olish-berishda vositachilikning jinoyat-huquqiy jihatlarini alohida monografik ish tarzda o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi “O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish muammolari”, “Globallashtirish sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirish muammolari”, “Sud-huquq sohasini isloh qilish va jinoyat qonunini liberallashtirish sharoitida jazo tizimini isloh qilish muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining jinoyat-huquqiy jihatlarini kompleks o‘rganish asosida aniqlangan muammolarni bartaraf etish, shuningdek, mazkur jinoyatga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirish hamda mazkur jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar, qonunchilikka takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati tushunchasi, tarixi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish;

pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zaruratini aniqlash;

pora olish-berishda vositachilik qilishning yuridik tarkibini tahlil qilish;

pora olish-berishda vositachilik qilishning og‘irlashtiruvchi belgilarini yoritish;

pora olish-berishda vositachilik qilishning o‘xshash jinoyatlardan farqli jihatlarini ko‘rsatish;

pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilagan ayrim davlatlar tajribasini tahlil qilish;

pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlikni takomillashtirishni tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilangan Jinoyat kodeksi normalarini takomillashtirish bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** pora olish-berishda vositachilik qilganlik uchun javobgarlikka oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbaalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, qonunni qo'llash amaliyotini tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va davlat xizmatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash sababli davlat xizmatchisi o'z faoliyati davomida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, beg'araz va xolis bo'lishi, xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi lozimligi, shuningdek, xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymasligi zarurligi ilmiy asoslangan;

sport musobaqalari natijalarining xolisligini, sport faoliyatining adolat tamoyillarini ta'minlash va uning jamiyatdagi nufuzini saqlab qolish sababli sport musobaqalari natijalarini yoki ularning borishini qasddan o'zgartirish maqsadida sportchining, trenerning, sport hakamining yoxud sport musobaqalari boshqa ishtirokchilarining va tashkilotchilarining ular bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora evaziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi asoslangan;

davlat fuqarolik xizmatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, xizmat ko'rsatish sifati va davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish sababli pora berish yoki vositachilik holatiga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat vaqtida beg'araz va xolis bo'lishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi lozimligiga oid axloqiy va etika qoidalari belgilanishi zarurligi asoslangan;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, shaffoflikni oshirish va yuridik shaxslarning boshqaruv organlarida g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini cheklash sababli affillangan shaxslarning pora olish-berishda vositachilik qilish ehtimolini minimallashtirish, butunlay cheklash maqsadida, yuridik shaxs ustav fondida ulushi bo'lgan yaqin qarindoshlar aksiyalarga egalik qilsa yoki tashkilotda boshqaruv organi xodimi bo'lsa, ular affillangan shaxslar deb e'tirof etilishi lozimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

“pora olish-berishda vositachi” tushunchasini, “pora olish-berishda vositachilik qilish”, “pora olish-berish to‘g‘risidagi kelishuv”, “nomoddiy manfaat” tushunchalarning mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilib, ularni jinoyat qonunchiligiga kiritish zarurati asoslangan;

JK 212-moddasi ikkinchi qismi “v” bandida nazarda tutilgan “bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olayotganligi vositachiga ayon bo‘lgan holda sodir etilgan bo‘lsa” tarzidagi jazoni og‘irlashtiruvchi belgini chiqarish zarurati asoslangan;

JK 212-moddasi uchinchi qismi “a” bandida “haq evaziga” pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlikni dekriminalizatsiya qilish lozimligi asoslangan;

JK 212-moddasi uchinchi qismiga “g” band sifatida mansab vakolatidan yoki xizmat mavqe‘idan foydalanib pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlikni kriminalizatsiya qilish lozimligi asoslangan;

ayrim holatlarda pora olish-berishda vositachi sodir qilayotgan harakatlarini sezdirmaslik va o‘zini tanitmaslik uchun turli xil ilovalar (“Click”, “Pay me”, “Paynet”) orqali jinoyat sodir etishi qonunchilikda inobatga olinmaganligi bois “texnik vositalar orqali” pora olish-berishda vositachilik qilish tarzidagi og‘irlashtiruvchi belgini kiritish lozimligi asoslangan;

pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati uchun yangi majburlov choralari: jabrlanuvchidan yoki davlatdan uzr so‘rash; ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa ommaviy axborot vositalari orqali raddiya berish; jabrlanuvchi yoki jinoyat haqida xabar bergan shaxslarni ta‘qib qilmaslikni qo‘llash tartibini takomillashtirish lozimligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlarning qonunni qo‘llash tajribasi yuzasidan tadqiqot natijalari o‘rganilgan, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazilgan, statistik ma‘lumotlar va 120 ta jinoyat ishlari bo‘yicha sud hukmlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda chop etish, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat huquqi nazariyasining rivojlanishiga, kelajakda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy o‘quv yurtlarida jinoyat huquqi fanidan dars o‘tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda, shuningdek, ushbu tadqiqot ishi natijasi pora olish-berisha vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilash va uning oldini olish bilan bog‘liq muammolarning hal etilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilash va uning oldini olish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, Jinoyat kodeksini takomillashtirishda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Pora olish-berishda vositachilik qilishning jinoyat-huquqiy jihatlarini o‘rganish natijalari asosida olingan:

davlat fuqarolik xizmatchisining faoliyatida poraxo‘rlikka oid jinoyatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish maqsadida davlat xizmatini amalga oshirishda beg‘araz va xolis bo‘lish, o‘z xizmat mavqeidan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik, shuningdek xizmat faoliyatiga, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari va fuqarolarning faoliyatiga qonunga xilof ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik singari majburiyatlar yuklatilishi zarurligiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ–788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasining 7-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 14-fevraldagi 01/q-08-26-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi davlat fuqarolik xizmatchisining o‘z xizmat mavqe’idan shaxsiy va boshqa g‘ayriqonuniy maqsadlarda foydalanishiga yo‘l qo‘ymasligiga xizmat qiladi;

sportchi, trener, sport hakami yoxud sport musobaqalarining boshqa ishtirokchilari va tashkilotchilari o‘z vakolati doirasidagi muayyan harakatni pora evaziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoxud bajarmasligi korrupsion qilmish sanalganligi sababli bunday qilmishni kriminalizatsiya qilish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan 2024-yil 4-noyabrdagi O‘RQ–988-son “Sport sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining JKga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 14-noyabrdagi 3/08-225-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi sport musobaqalari tashkilotchilari va ishtirokchilarini pora evaziga og‘dirib olishda ifodalanadigan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashga xizmat qilgan;

pora berish yoki vositachilik holatiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat vaqtida beg‘araz va xolis bo‘lishi, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi lozimligiga oid axloqiy va etika qoidalari belgilanishiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ–788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasining 5-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 14-fevraldagi 01/q-08-26-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat faoliyati davomida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligiga oid normaning shakllanishiga xizmat qilgan;

manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha yaqin qarindoshlar, ularning yuridik shaxs ustav fondida ulushi bo‘lsa yoki aksiyalarga egalik qilsa yoki tashkilotda boshqaruv organi xodimi bo‘lsa davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar deb topilishi kerakligi to‘g‘risidagi takliflardan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ–931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 8-sentabrdagi 3/dn-172-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslarni aniqlashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 7 ta ilmiy maqola (3 tasi xorijiy nashrlarda), 6 ta tezis chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

**Dissertatsiyaning birinchi bobi** "Pora olish-berishda vositachilik qilishning umumiy tavsifi" deb nomlanib, unda pora olish-berishda vositachilik qilishning umumiy tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda pora, pora olish-berishda vositachilik qilish, pora olish-berish to'g'risidagi kelishuv, manfaatdor shaxslar tushunchasi o'rganilgan va bu borada mualliflik fikrlari bayon qilingan. Shuningdek, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Bu borada islom tarixi, O'rta asrlar tarixi, sobiq Sovet davlati qonunchiligi o'rganilgan.

1922-yil 1-iyundan boshlab RSFSR Jinoyat kodeksi (JK) poraxo'rlikning har xil turlari: pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, pora olish-berish haqidagi jinoyatni yashirish uchun javobgarlikni belgiladi. RSFSR markaziy Ijroiya qo'mitasi va Xalq Komissarlari Kengashining 1922-yil 9-oktabrdagi qarori bilan pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish uchun jazoni kuchaytirdi va mas'ul shaxslar doirasini kengaytirdi. Keyinchalik pora olish, poraxo'rlik va vositachilik uchun sanksiyalar kamaya boshladi, RSFSR ning yangi JKda (1926) javobgarlik yumshatildi-poraxo'rlikka qarshi choralar ko'rmaganlik uchun jazo bekor qilindi, og'irlashtiruvchi holatlarsiz pora olish uchun sanksiyalar 2 yilgacha qisqartirildi. 1926-yil 16-iyunda O'zbekiston SSRning birinchi JK qabul qilingan bo'lib, uning maxsus qismi uchinchi bo'limida mansabdorlik jinoyatlari turkumida pora olish-berishda vositachilik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan edi.

Bundan tashqari 1959-yildagi O'zbekiston SSR JKda ham mavjud bo'lgan. O'zbekiston SSR JK 154-moddasi "Pora olish-berishda vositachilik qilish" deb nomlangan va ushbu moddaning birinchi qismiga ko'ra: pora olish-berishda vositachilik qilish, ikki yildan sakkiz yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu normada pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati aks etgan bo'lsa-da uning mazmun-mohiyati, qanday harakatlar pora olish-berishda

vositachilik qilish ekanligi to'liq ochib berilmaganligi bilan hozirgi JKdagi normadan farq qiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston SSR JKda ushbu qilmish uchun tayinlanadigan jazo ham birgina ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan cheklanib qolgan xolos. Uning 154-moddasi ikkinchi qismida jinoyat uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar aks etgan bo'lib, unga ko'ra: pora olish-berishda bir necha marta vositachilik qilish yoki ilgari poraxo'rlik uchun sudlangan shaxs tomonidan yoxud o'z xizmat mansabidan foydalanib qilingan vositachilik – mol-mulki musodara qilinib, yetti yildan o'n besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan va ozodlikdan mahrum qilish muddatini o'taganidan so'ng ikki yildan besh yilgacha muddatga surgun qilish yoki surgun qilmaslik bilan jazolanishi belgilangandi. Bundan tashqari, ushbu normada ko'rish mumkinki, qilmishning dispozitsiya qismi hozirgi JKda nazarda tutilgan qilmish bilan deyarli o'xshash bo'lsa ham, sanksiya qismi, yani jinoyatga tayinlangan jazo turlari va miqdorlari keskin farq qiladi. Xususan, mazkur jinoyat uchun O'zbekiston SSR JKda bugungi kunda qonunchilik tizimidan chiqarilgan mol-mulki musodara qilish kabi jazolar tayinlangan.

1962-yil 20-fevralda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining "Poraxo'rlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi, unda pora olish uchun tubdan boshqacha, ancha og'ir jazo turlari belgilandi. Bundan tashqari, Poraxo'rlik to'g'risidagi jinoiy qonunchilikka qo'shimcha o'zgartirishlar SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1986-yil 23-maydagi "Ishlab topilmagan daromadlarni undirishga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida"gi qarori bilan poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun qattiq jazo turlarini o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin barcha qonun hujjatlari, jumladan JK ham tubdan takomillashtirildi va 1994-yil 22-sentabrda O'zbekiston Respublikasi JK qabul qilindi. Uning 212-moddasida esa pora olish-berishda vositachilik qilganlik uchun javobgarlik belgilab qo'yildi. 1999-yil 24-sentabrda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 19-son Plenum qarori qabul qilindi. 2017-yil 3-yanvarda "O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni qabul qilindi.

Tadqiqot ishining birinchi bobida pora olish-berishda vositachilik qilish uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirishning ijtimoiy zarurati haqida ham so'z yuritilgan bo'lib, bunda ushbu qilmish uchun bugungi kunda jinoyat qonunchligini qo'llashda qanday islohotlar olib borilayotganligi, javobgarlikni takomillashtirishning xalqaro standartlari haqida so'z yuritilgan. Jumladan, bir qancha milliy va xalqaro hujjatlar: Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar), Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 9-sentabr), Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risidagi konvensiyasi (Strasburg, 1990-yil 8-noyabr), Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirma prinsipi (Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1997-yil 6-noyabrda qabul qilingan), Davlat xizmatchilari uchun namunaviy xulq-atvor kodeksi (2000-yil 11-may kuni Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan), Siyosiy partiyalarni va saylov

kompaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (2003-yil 8-aprel kuni Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan) tahlil qilingan. Xususan Istanbul korrupsiyaga qarshi harakatlar rejasida O‘zbekiston Respublikasi JKda “ta’sirni suiste’mol qilish” va “pulni legallashtirish (yuvish)” qilmishlari uchun alohida jinoiy javobgarlikni o‘rnatish va mustahkamlash kerakligi, bundan tashqari, JK VIII bo‘limida belgilangan ta’rifga ko‘ra, chet el mansabdor shaxsining ta’rifi mansabdor shaxsning umumiy ta’rifga kiritilganligi, bu ta’rif xalqaro standartlarga to‘la mos kelmasligi, bu ta’rif konvensiyalarda nazarda tutilganidan ancha tor bo‘lib, hatto ba’zi elementlari mavjud emasligi, O‘zbekiston tomonidan xorijiy mansabdor shaxs va xalqaro tashkilot mansabdor shaxsining ta’rifini xalqaro standartlarga moslashtirish va bu tushunchani JKga kiritish tavsiya etilgan.

Bundan tashqari Istanbul harakatlar rejasida O‘zbekiston Respublikasi JKda belgilangan aksariyat korrupsiyaviy jinoyatlarda javobgarlikni amal qilish muddati sifatida ikki yil muddat keltirib o‘tilgan. Bu jinoyat sodir etgan bir nechta shaxslarni jinoiy javobgarlikdan qochish uchun javobgarlikni amal qilish muddati tugagunga qadar jinoyat protsessini amalga oshirishni kechiktirishida imkoniyat berishi mumkin. Istanbul harakatlar rejasi 4-raundi monitoring guruhi tavsiyalarni bajarilishi yuzasidan monitoring 3-raundi yakuniy hisobotida javobgarlikning amal qilish muddati sifatida 2 yil muddat kam ekanligi, korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli vaqtni ta’minlash maqsadida javobgarlikni amal qilish muddati kamida 5 yil bo‘lishi kerakligi ta’kidlab o‘tilgan<sup>1</sup>.

Shuningdek, tadqiqot ishida R.A.Zufarov, Q.R.Abdurasulova, M.X.Rustamboyev, M.Usmonaliyev, B.I.Ismoilov, M.M.Kadirov, A.A.Rasulov, A.Otajonov, M.Q.O‘razaliyev, N.S.Salayev, S.Niyazova, X.R.Ochilov, I.A.Sottiyev, B.J.Axrarov, Q.Tojiboyev, M.Sobirov, G.R.Malikova, Ye.V.Kolenko, I.B.Dalning V.S.Ovchinskiy, A.Gurov, Yu.Melnikov, S.I.Dementev, O.A.Kuznetsova, S.V.Maksimov, A.V.Endoltseva, O.A.Vladimirova, Yu.V.Arsenteva, V.V.Naumov, I.Sh.Galstyan, T.M.Erlanovich, D.A.Abubekerova, O.N.Kuzmina, A.G.Antonov, G. Klausan, E.Luna, S. Rouz-Akerman, V.Jan, K.Ringaret, F.Shnayderlarning ilmiy ishlari o‘rganib chiqilgan. Ularning pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining tushunchasi, jinoyatning mazmuni xususidagi ilmiy-nazariy fikrlari pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining dispozitsiyasini yanada aniq tushunishga yordam beradi. Jumladan, R.A.Zufarov pora olish-berishda vositachilikni ikki mustaqil qilmishga ajratgan, ya’ni pora olish yoki pora berish to‘g‘risida kelishuvga erishish (intellektual vositachilik) va manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish.

M.Rustamboevning fikricha, pora olish-berishdagi vositachilik mohiyatiga ko‘ra, pora berish yoki pora olishda ishtirokchilikning bir ko‘rinishi bo‘lib, vositachi, aslini olganda, pora berish yoki pora olishda da’vat etuvchi yoxud yordamchi shaxs hisoblanadi. Ya’ni, pora olish-berishda vositachilik qilish normasini JKdan chiqarish va bunday harakatlarda aybdor deb topilgan shaxslarning qilmishini pora olishda ishtirokchi sifatida kvalifikatsiya qilish maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan.

---

<sup>1</sup>IHTT Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘ining Istanbul harakatlar rejasi rasmiy sayti (elektron manba) <https://www.oecd.org/corruption/acn/istanbulactionplan> havolada keltirilgan.

Shuningdek, huquqshunos olimlar pora olish-berishda vositachi tushunchasiga ham izoh bergan bo‘lib, rus olimi I.B.Dalning fikricha, pora olish-berishda vositachilar deb – bu pora beruvchi yoki pora oluvchi tashabbusi bilan ular o‘rtasida aloqa o‘rnatishga, pora olish-berish to‘g‘risidagi kelishuvga erishishga ko‘maklashgan shaxslarni tushunish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi “Poraxo‘rlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida pora olish-berishda vositachilikning ancha torroq talqini berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “pora oluvchining yoki pora beruvchining topshirig‘iga ko‘ra harakat qilib pora buyumini bevosita berayotgan shaxs vositachi” hisoblanadi.

Pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik va jazo belgilashdagi sud hujjatlari o‘rganib chiqilgan va ushbu qilmish uchun javobgarlikni takomillashtirish borasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazilgan va muallif tomonidan birqancha quyidagi takliflar ilgari surilgan: pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilashning huquqiy asoslari hozirga qadar jinoyat huquqi nazariyasining murakkab va dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, mavzuga oid adabiyotlar tahlili va pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilashga oid turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababdan jinoyat qonunchiligi takomillashtirilayotgan bugungi kunda jinoiy javobgarlik asoslari nazariy va amaliy fikrlarni chuqur tahlil qilib, xalqaro davlatlarning huquqiy tajribasidan kelib chiqqan holda kengaytirilishi lozim;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi JK 212-moddasida nazarda tutilgan pora olish-berishda vositachilik qilish uchun belgilangan norma dispozitsiyasida pora olish-berishda vositachilik qilish tushunchasini kengroq va aniqroq bayon qilish lozim. Shuningdek, JKga “vositachilik”, “pora olish-berishda vositachilik”, “manfaatdor shaxs”, “nomoddiy naf” tushunchalarini kiritish lozimligi to‘g‘risida xulosaga kelingan.

Pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati yuzaga kelish sabablari va jinoyat sodir qilinishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlariga ko‘ra ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilash zaruratini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

*birinchidan*, pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilashning yana bir zaruratini, pora olish (JK 210) va pora berish (JK 211) jinoyatlarining ham sodir qilinishiga olib kelishi bilan izohlash mumkin. Chunki, aksariyat hollarda porani berayotgan va uni olayotgan shaxslar ham jinoyatni ularning jinoyatlari ochilmasligi va javobgarlikdan qutulib qolish yoki javobgarlikni boshqa shaxsning nomiga yuklash maqsadida ham pora predmetini bevosita o‘zlari olmaydi va bermaydi ham. Bunda ularga vositachi shaxslar yordami qo‘l keladi. Shu sababdan ham pora olish-berishda vositachilar ishtirok etmasligi uchun qonun chiqaruvchining pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati uchun JKda alohida norma kiritib, javobgarlik belgilagani juda to‘g‘ri, deb hisoblangan;

*ikkinchidan*, pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilash jamiyatda tanish-bilishchilik, urug‘-aymoqchilikning avj olishiga ham olib kelishining oldini oladi. Sababi aksariyat hollarda pora oluvchilar va beruvchilar jinoyatni sodir qilishda vositachi shaxslar sifatida begona shaxslardan emas, asosan qarindosh urug‘lari yoki tanish-bilishlaridan foydalanishadi.

*uchinchidan*, JK 212-moddasi ikkinchi va uchinchi qismida pora olish-berishda vositachilik qilishni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir qilganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, takroran, xavfli retsivist yoki ilgari JKning 210-moddasi (pora olish) va 211-moddasi (pora berish) jinoyatini sodir qilgan shaxs tomonidan sodir qilganlik, ko'p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida, bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olayotganligi vositachiga ayon bo'lgan hollarda sodir etilganligi, muayyan haq evaziga, juda ko'p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida, uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilganligi kabilar shular jumlasidandir. Qonun chiqaruvchi bu holatlarga javobgarlik belgilash orqali pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining takroriyligini, ko'p va juda ko'p miqdorda sodir qilinishining, mansabdor shaxslar va uyushgan guruhlarning ham vositachilar orqali poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyatlarni sodir qilinishining oldini olishni ko'zda tutgan va bu holatlarni mazkur jinoyat uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Pora olish-berishda vositachilik qilishning o'ziga xos jihatlari**" deb nomlanib, ushbu bobda mazkur qilmishning yuridik tarkibi: jinoyat obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni tahlil qilingan. Bu borada bir qancha huquqshunos olimlar fikri o'rganilgan.

Jumladan, A.Otajonov, Yu.V.Kositsina, B.V.Voljenkin, Ye.V.Fomenko va boshqa olimlarning pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyat tarkibi obyektiv belgilari yuzasidan qarashlarini muhokama qilgan. Shunga ko'ra dissertant pora olish-berishda vositachilikning predmeti to'g'risida to'xtalib, pora predmetini aniqlashda pora sifati yoki uning qiymati muhim emas, muhimi jinoyatchi mulkiy yoki nomulkiy qiymatlikni qabul qilishiga e'tibor berish lozimligi haqida xulosa qilgan.

Shuningdek, bu boradagi xorijiy tajriba ham tahlil qilingan. Unga ko'ra ayrim davlatlarda, jumladan, Germaniya JKning 331-moddasida pora olish predmeti ham moddiy, ham nomoddiy bo'lishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli "imtiyozlar" (vorteil) bilan belgilanadi. Ushbu atamaning bunday talqini tegishli ko'rsatmalar va sud va tergov amaliyotining natijalari bilan tasdiqlangan. Litva JKga ko'ra, pora predmeti har qanday mol-mulk yoki boshqa shaxsiy foyda shaklida har qanday noqonuniy afzallik hisoblanadi. Ozarbayjon JKga ko'ra, har qanday moddiy yoki boshqa qiymat, imtiyozlar yoki afzalliklar pora predmeti hisoblanadi. Bundan tashqari, jinoyat predmetiga nisbatan Vengriya, Ispaniya, Finlyandiya jinoyat qonunlarida ham ayni shu qoida amal qiladi.

Tadqiqot ishida R.A.Zufarov, A.A.Otajonov, M.Rustamboev, N.S.Salayev, S.Niyozova, M.A.Lyubavina, K.Chashinlarning ham pora olish-berishda vositachilik qilishning subyekti va subyektiv tomoni xususidagi ilmiy fikrlari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida pora olish-berishda vositachilik qilishning JK 212-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida keltirilgan og'irlashtiruvchi belgilari ham tahlil qilindi. Bundan tashqari mazkur qilmish pora olish va berishda ishtirokchilik, firibgarlik, tijoratda pora evaziga og'dirib olish, xizmatchini haq evaziga og'dirib olish kabi jinoyatlar bilan ham o'xshash, ham farqli belgilarga ega ekanligi aniqlangan.

Pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining yuridik tarkibi, javobgarlikni va jazoni og'irlashtiruvchi belgilari, o'xshash jinoyatlardan farqli jihatlarning tahlili bo'yicha quyidagi xulosaga kelingan:

*birinchidan*, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining obyekti – hokimiyat, boshqaruv organlari va jamoat birlashmalarining normal ishlashiga qarshi qaratilgan ijtimoiy munosabaatdir. Shuningdek, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati sodir etilganida qonun bilan bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga, ya'ni davlat va jamoat tashkilotlarining to'g'ri va qonuniy faoliyatini buzib, bu shaxslar pora oluvchi (mansabdor shaxs)ning xatti-harakatlari orqali davlat va jamoat tashkilotlari obro'siga putur yetkazadi.

Obyektiv tomondan esa, mazkur jinoyat pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish harakatida namoyon bo'ladi. Dissertantning fikricha, bunda pora olish yoki berish haqidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat deganda aybdor tomonidan sodir etilgan yoki sodir etilishi pora berilishiga yoki uning mansabdor shaxs tomonidan olinishiga xizmat qiluvchi har qanday xatti-harakatni tushunish va bunday vositachilik pora olish-berishda intellektual vositachilik sifatida baholanishi lozim.

Pora olish-berishda vositachilik qilishning yana bir ko'rinishi pora predmetining pora beruvchidan olib, pora oluvchiga bevosita topshirilishda ifodalanadi. Bunda mazkur jinoyat pora oluvchi vositachidan poraning to'liq yoki bir qismini olgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Dissertantning fikricha, bunday vositachilik pora olish-berishda jismoniy vositachilik, deb sanalishi lozim.

Agarda pora mansabdor shaxs tomonidan olinmagan bo'lsa, bunday harakat poraxo'rlikda vositachilik qilishga suiqasd, deb topiladi. Shuningdek, jinoyatni sodir qilishda vositachi o'z tashabbusi bilan emas, balki pora beruvchi yoki pora oluvchining tashabbusi (iltimosi yoki topshirig'i) bilan harakat qiladi;

*ikkinchidan*, mazkur jinoyat subyekti JKning 17-moddasiga ko'ra, 16 yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxs bo'lib, subyektiv tomondan qasd, ya'ni to'g'ri qasddan sodir qilinadi. Bunda shaxs pora olish-berishda vositachilik qilish harakatining jinoyat ekanligini biladi, o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi va shu harakatlarning yuz berishini istaydi. Biroq, aybdor agarda pora predmetini pora beruvchidan olib, pora oluvchiga berayotganini anglamasa, uning harakatlari JKning 212-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikni vujudga keltirmaydi.

*uchinchidan*, JKning 212-moddasi ikkinchi va uchinchi qismiga ko'ra, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini 1) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 210 yoki 211-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan; 2) ko'p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida; 3) bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olayotganligi vositachiga ayon bo'lgan holda; 4) haq evaziga; 5) juda ko'p miqdorda pora olish yoki berish vaqtida; 6) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoni og'irlashtiruvchi holatlar deb topiladi.

Ushbu holatlarni tahlil qilib, og'irlashtiruvchi holatlarning tatbiq qilinishi borasida quyidagicha xulosaga kelingan: 1) uyushgan guruh yoxud uning alohidagi ishtirokchilarining manfaatlarini ko'zlab pora olinganida pora beruvchi mansabdor

shaxs ularning manfaatlarini ko'zlab harakat qilayotganini anglamasligi ham mumkin; 2) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab pora berilganida pora beruvchi pora oluvchining ham uning o'zi, ham butun guruh uchun maqbul bo'lgan harakatlari (harakatsizligi)dan manfaatdordir. Bunda pora oluvchi uyushgan guruhning manfaatlarini ko'zlab qilmish sodir etayotganligini anglamasligi ham mumkin.

*to'rtinchidan*, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati jinoyat tarkibi jihatdan JKdagi ayrim jinoyatlar bilan o'xshash va farqli jihatlari mavjud bo'lib, firibgarlik, pora olish, pora berish, xizmatchini haq evaziga og'dirib olish jinoyatlari shular jumlasidandir. Xususan, jinoyatni sodir qilish shakliga ko'ra, mazkur jinoyat ishtirokchilikka xam o'xshab ketadi va farqli jihati xam bor. Jumladan, pora olishda ishtirokchilikning majburiy belgisi – subyektning pora olish uchun lavozimi bo'yicha o'z vakolatidan boshqa ishtirokchilar bilan birgalikda harakatlar sodir etish orqali foydalanganligidir. Boshqa subyektlarning xatti-harakatlari JKning 28-moddasiga binoan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Mansabdor shaxs basharti o'zi vakolatlaridan foydalanmagan holda xizmat faoliyati manfaatlariga zid ravishda boshqa mansabdor shaxsning pora olishi uchun ko'maklashayotgan bo'lsa, ishtirokchi hisoblanmaydi.

Bundan tashqari, mazkur jinoyatning firibgarlik va tijoratda pora evaziga og'dirib olish jinoyatlaridan o'xshash va farqli jihatlari aniqlash uchun jinoyat tarkibining belgilariga e'tibor qaratish lozim.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Pora olish-berish uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari**” deb nomlanib, ushbu bobda pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilagan ayrim xorijiy davlatlar: AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Avstrya, Shvetsiya Xitoy, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Boltiqbo'yi davlatlari, MDH davlatlaridan: Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Tojikiston kabi davlatlar jinoyat qonunchiligi tahlil qilingan va bu bo'yicha mualliflik fikrlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, mazkur bobda pora olish-berishda vositachilik qilish uchun milliy qonunchilikdagi javobgarlik va jazo belgilash bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf qilish masalalari bayon qilingan.

Yuqoridagilarga asosan, quyidagi takliflar ilgari surilgan:

*birinchidan*, JK 212-moddasida ko'rsatilgan pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini ikki qismga: intellektual va jismoniy vositachilikka ajratish hamda har ikkala qilmishni mustaqil tarkib sifatida e'tirof etish lozim;

